


# Jahon kimyo sanoati xabarlari: elektr energiyasiz havodan suvni samarali olish usuli topildi

// 04.12.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-xabarlari-elektr-energiyasiz-havodan-s>



Xalqaro kimyogarlar jamoasi organik kristallar yordamida suv bug'idan elektr energiyasiz suv yig'ib oluvchi kompozit material ishlab chiqdi. U ingichka iplarga o'xshaydi.

Chuchuklashtirish iste'mol va sanoatda qo'llaniladigan suv olishning asosiy usullaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayon, hatto bug'dan suvning oddiy tuzsizlangan kondensatsiyasini olish haqida gapiradigan bo'lsak ham, katta energiya sarfini talab qiladi.

Professor Panse Naumov boshchiligidagi kimyogarlar jamoasi muqobil yondashuvni taklif qildi va uni amalga oshirish uchun "aqlli" kristallarni ishlab chiqdi.

Bunga olimlarni qurg'oqchil hududlar o'simliklari va hayvonlari ilhomlantirgan. Ayrim cho'l hasharotlari va kaltakesaklari evolyutsiya jarayonida gidrofil va gidrofobik zonalarni mujassamlashtirgan maxsus sirtini hosil qilgan.

Gidrofil qism suvni o'ziga tortadi va u tomchi bo'lib to'planadi. Bu hayvonlarga yiliga bir santimetrdan kam yog'ingarchilik tushgan joylarda ham havodan namlik to'plash imkonini beradi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati